

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 198 (1259), 2024-yil 28-sentabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## STRATEGIK TARMOQLARDA KENG KO‘LAMLI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o‘rinbosari, mudofaa vaziri, Dubai Amirliqi valiahdi Shayx Hamdan bin Muhammad Ol Maktum boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda ko‘p qirrali sheriklikni yanada rivojlantirish, iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalarni ilgari surish, mudofaa sohasida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi.



Uchrashuvda BAA delegatsiyasi tarkibida hukumat ishlari vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gergaviy, energetika va infratuzilma vaziri Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy, iqtisodiyot vaziri Abdulloh bin Tuk al-Mariy, sun‘iy intellekt masalalari va raqamli iqtisodiyot bo‘yicha davlat vaziri Umar bin Sulton al-Olama ham qatnashdi.

Suhbat avvalida Shayx Hamdan Ol Maktum davlatimiz rahbariga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon va mamlakat Bosh vaziri, Dubai Amiri Shayx Muhammad Ol Maktumning samimiy salomini yetkazdi.

Uchrashuvda investitsiyalar, innovatsion rivojlanish, “yashil” energetika, infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya, raqamli transformatsiya, turizm va boshqa muhim yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi uzoq muddatli kun tartibini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Kunning birinchi yarmida o‘tkazilgan o‘zaro manfaatli hamkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qo‘shma forum hamda ikki tomonlama hukumatlararo va idoralararo muzokaralarning samarali yakunlari yuksak baholandi.

Strategik tarmoqlarda keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Ta’kidlash joizki, BAA O‘zbekistonning Osiyo mintaqasidagi asosiy hamkorlaridan biridir.

Oxirgi oliy darajadagi muloqotlar o‘tgan yil dekabr oyida Dubai shahrida bo‘lib o‘tgan Global iqlim sammiti doirasida o‘tkazilgan edi.

Tovar ayirboshlash 2023-yilda 21 foizga o‘sib, 626 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizda Amirliklar kapitali ishtirokida 320 dan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Amalga oshirilayotgan va istiqbolli investitsiya loyihalari portfeli qariyb 20 milliard dollarni tashkil etadi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidentining  
F A R M O N I

## O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, sohada islohdarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, o‘quv jarayoniga milliy va ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish borasidagi munosib hissasi, o‘quvchilarga ilm-fan asoslari va zamonaviy kasb-hunararni o‘rgatish, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lidagi katta xizmatlari, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, farzandlarimizni Vatanga mehr va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”  
faxriy unvoni bilan

**Abduraxmanova Ozoda Dexkanboyevna** — Quyi Chirchiq tumanidagi 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

**Akramov Nabijon Kurbonovich** — Marhamat tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni bilan

**Matmuratov Ixtiyor Kurbonboyevich** — Shovot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

**Raupov Ilyos Axadovich** — G‘ijduvon tumanidagi 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

**Achilova Manzura Sheraliyevna** — Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

**Karimov Suyun Amirovich** — Samarqand davlat universitetining o‘zbek tilshunosligi kafedrasida professori, Samarqand viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustози” faxriy unvoni bilan

**Mendibayev Baxram Rustamovich** — Sport yakkakurashlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining og‘ir atletika bo‘yicha katta murabbiysi

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

**Kuvandikova Djamilia Yaxshibayevna** — Navoiy shahridagi 1-bolalar musiqa va san’at maktabining fortepiano sinfi o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

**Mirzaxmedov Mirfazil Abdilxakovich** — O‘zbekiston Respublikasi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi yetakchi mutaxassisi

**Rapikova Xafiza Kayumberdiyevna** — A.P.Xlebushkina nomidagi 22-Mehribonlik uyi tarbiyachisi, Toshkent shahri

**Xomidov Dilshodbek Boxodirovich** — Shahrixon tumanidagi “Akademik Sarimsaqov” nodavlat ta’lim muassasasining fizika fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Davomi 2-betda

## SHAHARSOZLIK

KENGASHLARI FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ JARAYONLAR TO‘LIQ RAQAMLASHTIRILADI

Munosabat

Qurilish sohasida yangi davr boshlanib, mamlakatimiz tom ma’noda ulkan qurilish maydoniga aylangani rost. Boshqa jabhalar qatori qurilish tarmog‘i ham jadal rivojlanib, sohaga yangi texnologiya va innovatsiyalar, eng zamonaviy me’moriy yechimlar faol kirib kelmoqda. Xususan, so‘nggi yetti yilda qurilish materiallari sohasiga 9 milliard dollar investitsiya kiritilib, 5 mingga yaqin yangi korxonalar ishga tushirilgan. Bu orqali 94 mingta doimiy ish o‘rni ochilgani, ishlab chiqarish esa 2 karra o‘sib, yillik aylanmasi 100 milliard so‘mdan ziyod korxonalar 150 tadan oshgani e’tiborga molik.

Shuningdek, oxirgi besh yilda bunyodkorlik hajmi 2 barobar ko‘paygan. 650 million dollarlik yangi mahsulotlar o‘zlashtirilgani hisobiga qurilishdagi import ulushi 31 foizdan 25 foizga kamaygan. Qurilish materiallari eksport bozori kengayib, 58 taga yetdi. Eng muhimi, o‘tgan yetti yilda yurtimizda qurilish ishlari hajmi bir necha barobar ortdi. Masalan, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida ko‘plab

qishloq va mahallalarimizdagi yo‘l hamda transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarida qurilish, obodonlashtirish ishlari bajarildi. Har bir fuqaro o‘z uyiga ega bo‘lsin, degan maqsadda arzon uy-joylar va ko‘p kvartirali uylar barpo etish ishlari keskin jadallashdi.

Davomi 4-betda



## SAYLOVOLDI TASHVIQOTI — SAYLOV KAMPANIYASINING HAL QILUVCHI BOSQICHI

Mamlakatimiz va xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim siyosiy voqealik — parlament va mahalliy kengashlarga saylovni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish jarayonlari qizg‘in pallaga kirdi. Saylovda ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti boshlandi.

Xo‘sh, saylovoldi tashviqotning ahamiyati nimada? Saylov jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri saylovoldi tashviqotidir. Chunki har birimiz saylovchi sifatida nomzodlar yoxud siyosiy partiyalar to‘g‘risida ishonchli, xolis va to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishni xohlaymiz. Tabiiyki, qizg‘in va samarali saylovoldi tashviqoti jarayoni saylovchilarning saylovda erkin, ixtiyoriy va mas’uliyat bilan ovoz berishini ta’minlaydi.

Saylovoldi tashviqoti saylovchilarning butun saylov instituti haqidagi fikrini, ovoz berishda ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligini hal qilishda, o‘z navbatida, aholining elektoral madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida saylovoldi tashviqotiga oid fikr-mulohazalarni uning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali ko‘rib chiqamiz.

Davomi 4-betda

## “DEBAT XOLL” MEDIA MARKAZI — SIYOSIY MUNOZARA VA DEBATLAR UCHUN QULAY PLATFORMA

Joriy yil 27-oktabrda mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi ilk bor aralash saylov tizimi asosida bo‘lib o‘tadi. Bu jarayon tashkiliy jihatlarida ham o‘zgacha huquqiy formatlarda ko‘zga tashlanmoqda.

Mazkur siyosiy jarayon doirasidagi saylovoldi tashviqot jarayonlari qizg‘in tus olgan bir pallada Toshkentda ochilgan “Debat xoll” media markazini buning amaliy ifodasi, deysih mumkin.

Avvalo, shuni ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston Milliy media birlashmasi va Xalqaro press-klub hamkorligida tashkil etilgan mazkur media markaz yangi saylov tizimiga o‘tayotganimizning yorqin ifodasidir. Negaki markaz saylovda

ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar vakillari o‘rtasida fikr almashish uchun maxsus platforma vazifasini o‘taydi, ochiq siyosiy munozara va debatlar o‘tkazish uchun qulay sharoit yaratadi. Binobarin, saylovda ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar hamda deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqotiga, xususan, ularni bir joyga jamlab, chinakam siyosiy debatga zamin yaratuvchi ushbu markazda barcha qulayliklar yaratilgan.

Davomi 2-betda

## MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS  
QONUNCHILIK PALATASI  
VA MAHALLIY  
KENGASHLAR DEPUTATLARI  
SAYLOVI KUNI

SAYLOV  
2024  
27-OKTABR  
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O N I

# O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA‘LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

## “Do‘stlik” ordeni bilan

**Azamatova Galina Raufovna** — Paxtakor tumanidagi “Kiddie” nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori, Jizzax viloyati

**Axmedova Zamira Odilovna** — Chust tumanidagi 35-maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi, Namangan viloyati

**Boltayeva Qambar Abdullayevna** — Buxoro shahridagi Prezident maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

**Geddi Mishel Deniz** — “Yangi O‘zbekiston” universiteti dotsenti

**Kim Zinada Konstantinovna** — O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

**Madjidov Inom Urishevich** — O‘zbekiston Milliy universiteti rektori

**Mashrabbekova Aziza Mashrabbekovna** — Koreya Respublikasining Xankuk xorijiy tillar universiteti Markaziy Osiyo kafedrasida professori

**Miroshkina Olga Yuryevna** — Mirobod tumanidagi 60-ixtisoslashtirilgan maktabning nemis tili fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

**Muminov Sidikjon Mirsobirovich** — Farg‘ona davlat universitetining tilshunoslik kafedrasida professori, Farg‘ona viloyati

**Muntayeva Gulnara Uzakbayevna** — O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Nukus filiali xalq ijodiyoti kafedrasida o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Namazova Kizlarsara Muratovna** — Jarqo‘rg‘on tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

**Stepanova Olga Anatolyevna** — Paxtachi tumanidagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

**Toychubayeva Aysulu Mamatbekovna** — Xo‘jaobod tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Andijon viloyati

**Turdiyeva Iroda G‘ayratovna** — Kitob tumanidagi 96-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

**O‘razaliyev Abdunazar Norqulovich** — Boyovut tumanidagi 1-kasb-hunar maktabining ishlab chiqarish ta‘limi ustasi, Sirdaryo viloyati

**Xabibullina Vinera Salixovna** — Zangiota tumanidagi 14-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

## II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

**Abduraxmanova Iqbolxon Yulchiyevna** — Toshkent pediatriya tibbiyot institutining akademik litseyi biologiya fani o‘qituvchisi

**Almatov Tura Jurayevich** — Qum-qo‘rg‘on agrotexnologiyalar texnikumining maxsus fan o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

**Astanov Salix Xusenovich** — Buxoro muhandislik-texnologiya institutining aniq fanlar kafedrasida professori, Buxoro viloyati

**Ashurova Sanobarxon Yuldashyevna** — Professional ta‘limni rivojlantirish institutining innovatsion loyihalar, fan va ta‘lim texnologiyalari transferi bo‘limi boshlig‘i

**Boqiyev Akram Vasiyevich** — Yakkabog‘ tumanidagi 75-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

**Ibragimov Rustam Asadovich** — Jizzax ixtisoslashtirilgan san‘at maktabining chang sinfi o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

**Olimova Anaray Djuraxanovna** — Yuqori Chirchiq tumanidagi 20-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

**Polvonova Yulduzxon Sapparboyevna** — Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi ijod maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

**Razzoqov Shamsiddin Ergashevich** — Mingbuloq tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

**Rafiyev Xamrakul Talibovich** — Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Samarqand filiali professori, Samarqand viloyati

**Rixsiyeva Gulchexra Shovkatovna** — Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori

**Sultonova Muxayyo Yoqubbekovna** — Kosonsoy tumanidagi 24-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

**Tadjidinova Feruza Raxmankulovna** — Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining akademik litseyi ijrochi direktori, Navoiy viloyati

**Turdimuratova Zulfiya Yeshanovna** — Mo‘ynoq tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining qoraqalpog‘ tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Shirinov Xurshid Xasanovich** — Toshkent shahridagi Prezident maktabining fizika fani o‘qituvchisi

## “Sog‘lom turmush” medali bilan

**Allaberganova Nilufar Ilyosovna** — Qo‘shko‘pir tumanidagi 4-ixtisoslashtirilgan maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

**Aripova Gulnara Talibovna** — Sportning qishki va murakkab texnik turlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining kamondan otish bo‘yicha murabbiysi

**Kazakova Dilfuza Reyimbayevna** — Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Barkamol avlod” bolalar maktabining tasviriy san‘at to‘garagi rahbari

**Kimsanova Saydaxon Esonovna** — Quva tumanidagi 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

**Mamadaliyev Yasharjon Mashrabovich** — Norin tumanidagi 42-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

**Radjabova Muxabbat Toshpo‘latovna** — Sardoba tumanidagi 13-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining tasviriy san‘at va chizmachilik fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

**Samadova Sabina Sabirovna** — Karmana tumanidagi “Kids Akademi” nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori, Navoiy viloyati

**Tashmuxeomova Shaxnoz Rafikovna** — Shayxontohur tumanidagi 186-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Toshkent shahri

**Xudoymurodova Hilola Muxiddinova** — Qiziriq tumanidagi 36-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

## “Shuhrat” medali bilan

**Allaberganova Gulshiyra Atamuratovna** — Xo‘jayli tumanidagi 26-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Atajonova Saidaxon Borataliyevna** — Andijon mashinasozlik institutining axborot texnologiyalari kafedrasida mudiri, Andijon viloyati

**Berdiyeva Umidxon Osimjonovna** — Yakkasaroy tumanidagi “Humo School Academy” nodavlat ta‘lim muassasasi direktori, Toshkent shahri

**Boyqobilova Dilrabo Soatmurodovna** — Bandixon tumanidagi 17-ixtisoslashtirilgan maktabning biologiya fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

**Buranov Jurabek Rasulovich** — Termiz tumanidagi 12-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining informatika fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

**Valiyeva Ziyoda Abdujabborovna** — Farg‘ona tumanidagi “Baxti kelajak sari qadam” oilaviy bolalar uyi rahbari, Farg‘ona viloyati

**Vaxobova Ozoda Xolmurodovna** — Tayloq tumanidagi 10-maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi, Samarqand viloyati

**Davronova Dilrabo Shermamatovna** — “SOS — O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasining Samarqand shahridagi filiali direktori, Samarqand viloyati

**Isayeva Barno Abdujabbarovna** — Respublika musiqa va san‘at kollejining teatr va kino san‘at kafedrasida mudiri

**Ismailova Ereshgul Joyayevna** — Qorovulbozor tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi kutubxonachisi, Buxoro viloyati

**Karimov Abdurashid Musaxonovich** — Namangan davlat universitetining kimyo kafedrasida dotsenti, Namangan viloyati

**Kodirova Xavoxon Gulyamovna** — Farg‘ona shahridagi 5-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

**Koriyev Rustam Umarjon o‘g‘li** — Toshkent shahridagi “Ibrat farzandlari” nodavlat notijorat tashkiloti rahbari

**Kurbanov Ongarbay Xojanbergenovich** — Nukus shahridagi Prezident maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Kurbonov Jo‘rabek Abduvohidovich** — Ulug‘nor tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning kimyo fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

**Qo‘nisheva Gulchexra Asadovna** — Baxmal tumanidagi 66-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

**Maxamatkulova Sayyora Abdullayevna** — O‘rta Chirchiq tumanidagi 72-ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

**Muzafforova Oygul Kurbanboyevna** — Guliston tumanidagi 29-umumiy o‘rta

ta‘lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

**Muminova Dilnoza Pardaqulovna** — Olmazor tumanidagi 234-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

**Nasimov Bekzod Shermuhammad o‘g‘li** — Jizzax shahridagi Prezident maktabining informatika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

**Nishanbayev Sabir Zaripbayevich** — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘simlik moddalar kimyosi instituti laboratoriya mudiri

**Nuraliyeva Nilufarxon Sodikjonovna** — Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar uchun internet uyi tarbiyachisi, Andijon viloyati

**Nurmamatova Charos Kurbonovna** — Oqdaryo tumanidagi 22-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining nemis tili fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

**Ochilov Anvar Jonpo‘latovich** — Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

**Parpiyeva Nigora Nazirovna** — Quvasoy shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabning kimyo fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

**Pulatov Gaybulla Jololovich** — Chortoq tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning biologiya fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

**Rajabova Sarvinoz Yunusovna** — Jondor tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

**Roziqov Oybek Baxodirovich** — Mirzaobod tumanidagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

**Sabirova Muxayyo Xusniddinova** — Olmazor tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar uchun 1-internet uyi logopedi, Toshkent shahri

**Saidmuradov Shuxrat Alisherovich** — Toshkent tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

**Samadov Sardor Sabirovich** — Navoiy shahridagi 11-ixtisoslashtirilgan maktabning kimyo fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

**Tagaymuratov Abduvait Abdimuratovich** — Abdulla Qodiriy nomidagi

ijod maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

**Tangirov Xurram Ergashevich** — Jizzax davlat pedagogika universitetining informatika va raqamli ta‘lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti, Jizzax viloyati

**Toirov Olimjon Zuvurovich** — Toshkent davlat texnika universitetining elektr mashinalari kafedrasida mudiri

**Tulkibayeva Furuza Kalbayevna** — Konimex tumanidagi 19-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori, Navoiy viloyati

**Tulyaganova Dilfuza Yuldashyevna** — Qibray tumanidagi kasb-hunar maktabining ishlab chiqarish ta‘limi ustasi, Toshkent viloyati

**Tuxtamurodov Elbek Dilmurodovich** — Qarshi shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning matematika fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

**Xaliqov Azamat Qaxramonovich** — Qarshi shahridagi 18-ko‘zi o‘g‘il bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

**Xashimova Saboxat Abdullayevna** — O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining tillarni o‘rganish kafedrasida professori

**Xudoyberdiyeva Oytula Murtazakulovna** — Mirishkor tumanidagi 13-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

**Shadiyarov Alisher Eshpo‘latovich** — Do‘stlik tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining tasviriy san‘at va chizmachilik fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

**Shixnazarova Sadoqat Umarjan qizi** — Xiva shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

**Ergasheva Guli Ismoil qizi** — O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ingliz filologiyasi fakulteti dekani

**Eshto‘rayev Xo‘shboq Chorshanbiyevich** — Sherobod tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

**Yuldashev Djamshid Abdalimovich** — Uchquduq tumanidagi 20-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

O‘zbekiston Respublikasi  
PrezidentiToshkent shahri,  
2024-yil 27-sentabr

SH. MIRZIYOYEV

## “DEBAT XOLL” MEDIA MARKAZI — SIYOSIY MUNOZARA VA DEBATLAR UCHUN QULAY PLATFORMA



Boshlanishi 1-betda

Shahar markazida joylashgan “Debat xoll”ning aholi gavjum hududida saylov ko‘chasi ham tashkil etilganki, bu hech bir yo‘lovchining e‘tiborini tortmasdan qo‘ymaydi.

Markazning ochilish marosimida ishtirok etgan Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, Markaziy saylov komissiyasi, Milliy media birlashmasi, Xalqaro press-klub, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi mas‘ullari va boshqalar “Debat

xoll”ning shu kabi ustuvorliklariga alohida e‘tibor qaratdi.

Darhaqiqat, “Debat xoll” media markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi saylovni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish jarayonlari, shu jumladan, saylovoldi tashviqot tadbirlarini

yuqori darajada o‘tkazish imkonini yaratadi. Bu borada markazning uch asosiy jihati to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

**Birinchisi** — bunday qulayliklarga ega media markaz faoliyati mamlakatimiz tarixida birinchi marta yo‘lga qo‘yildi.

**Ikkinchisi** — media markazda saylovda ishtirok etayotgan barcha siyosiy partiyalarning raislari o‘rtasida birinchi debat tashkil etildi.

**Uchinchisi** — shahar markazida joylashgan “Debat xoll”ning aholi gavjum hududida saylov ko‘chasi ham tashkil etilganki, bu hech bir yo‘lovchining e‘tiborini tortmasdan qo‘ymaydi.

Ha, yangicha huquqiy asosda tashkil etilayotgan bu yilgi saylovlarga tayyorgarlik jarayonlari ham boshqacha — yangicha va kreativ yondashuvlar asosida. Shunga mos ravishda saylovoldi tashviqot tadbirlari barcha saylovchilar e‘tiborini tortishi, pirovardida ular o‘zlari loyiq deb topgan, hayotimizni yanada yaxshilashga qodirligiga ishongan nomzodlarga ovoz berishiga ishonchimiz komil.

“Debat xoll” media markazining faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, unda o‘tkaziladigan saylovga doir turli tadbirlar bo‘lajak saylovni yuqori darajada uyushqoqlik bilan o‘tkazish, saylov bilan bog‘liq jarayonlarni yoritishda xolislik va shaffoflikni ta‘minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Avazbek XUDOYQULOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## LONDONDA NAMOIYISH ETILAYOTGAN “IPAK YO‘LI” KO‘RGAZMASI YETAKCHI XORIJIIY NASHRLAR NIGOHIDA

Britaniya muzeyida 26-sentabr kuni ochilgan O‘zbekiston tarixiga oid noyob ko‘rgazma ushbu mamlakatning yetakchi ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritilayotir.

Britaniyalik jurnalistlarning yozishicha, ko‘rgazma nafaqat mintaqaning noyob osori atiqalari va madaniy yutuqlarini namoyish etdi, balki O‘zbekistonning tarixiy Ipak yo‘lining asosiy bo‘g‘ini sifatidagi muhim rolini ham ta‘kidlaydi.

Jumladan, “The Times” gazetasida bosilgan “Ipak yo‘lini o‘rganish — Britaniya muzeyi ajoyib muvaffaqiyatga erishdi” sarlavhali maqolada yozilganidek, O‘zbekistonga bag‘ishlangan ushbu ko‘rgazma loyihasi hayratlanarli yutuqdir. Sharq va G‘arbiy bog‘lovchi yo‘nalishlar tarmog‘iga bag‘ishlangan ko‘rgazmada 300 dan ortiq eksponat — go‘zal, noodati va murakkab obyektlar o‘rin olgan. Ular orasida Samarqanddan

topilgan fil suvayidan yasalgan shaxmat donalari tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi. Maqola muallifining qayd etishicha, ko‘rgazma Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

“The Guardian” gazetasida chop etilgan “Ipak yo‘llari — jahon tarixini yorituvchi hayratlanarli shou” sarlavhali maqolada ta‘kidlanishicha, Britaniya muzeyidagi ko‘rgazma Osiyo, Yevropa va Shimoliy Afrikaning minglab yillar davomida Ipak yo‘li deb nomlangan savdo yo‘llari orqali o‘zaro bog‘langanini ko‘rsatadi. Bu Sharq va G‘arbiy madaniyatlar alohida-alohida emas, balki o‘zaro uyg‘un holda rivojlanganidan dalolatdir.

“Ko‘rgazma tarixni jonlantiradi. Asosiy e‘tibor eramizning 500-1000-yillari, yangi dinlar, madaniyatlar va badiiy uslublar paydo bo‘lgan davrga qaratilgan. To‘plam Yevrosioning Afg‘onistondan Andalusiya gacha bo‘lgan ko‘plab mintaqalarini qamrab olgan bo‘lib, san‘at, g‘oya va buyumlarining Ipak yo‘li bo‘ylab qanday tarqalishini namoyish etadi”, deyiladi nashrda.

Qadimiy osori atiqalari o‘zining nafisligi bilan hayratga soladigan so‘g‘d xalqlari madaniyatidan darak beradi. Ko‘rgazmada nafaqat jangchi, balki ulug‘vor san‘at yaratuvchisi bo‘lgan ko‘chmanchi xalqlarning tarixi ham alohida ochib berilgan.

“Ushbu ko‘rgazma Ipak yo‘li haqida ba‘zi odamlar kunganidan mutlaqo boshqacha tasavvumi taqdim etadi... Sharq va G‘arb o‘rtasidagi yagona savdo yo‘li bo‘lgan Ipak yo‘lini qit‘alarni bir-biriga bog‘lovchi yo‘l sifatida bilamiz. Ushbu qadim yo‘l Osiyoni Afrika va Yevropa bilan bog‘lagan”, deb yozilgan “Reuters” axborot agentligi tarqatgan maqolada.

“The Standard” gazetasida chop etilgan “Britaniya muzeyidagi Ipak yo‘llari: maftunkor qadimiy shaharlar va sivilizatsiyalar romantikasi” sarlavhali maqolada Britaniya muzeyidagi ochilgan “Ipak yo‘li” ko‘rgazmasi faqat ipak haqida emasligi ta‘kidlangan. Unda Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy so‘g‘diylarga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, yug‘och o‘ymakorligi va suyakdan yasalgan ashyolar Ipak yo‘lidagi madaniy xilma-xillik va diniy ta‘silarni namoyon etadi.

“Mavzularning rang-barangligi ko‘rgazmaga tashrif buyuruvchilarni Ipak yo‘lining sirli olamiga, madaniyatlar va savdo yo‘llari keshigan manzillar sari eltadi”, deb yozgan muallif o‘z xulosasida.

Ushbu ko‘rgazma haqidagi maqolalar, shuningdek, “The Art Newspaper” gazetasi, “Apollo Magazine” va boshqa mashhur britan nashrlarida ham chop etilgan.

“Dunyo” AA

London



ADOLATLI JAMIYATNI  
BIRGALIKDA QURAMIZ!ADOLAT  
SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Mamlakat siyosiy maydonida o'zini so'l markaz pozitsiyasida namoyon etib kelayotgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi sotsial-demokratiya mafkurasiga sodiq qolgan holda iqtisodiy erkinlikni tan olishda davlat ishtirokini saqlab qolish, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti kabi g'oyalarni ilgari surib keladi.

Partiyamiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatiga joriy yilning 27-oktabr kuni bo'lib o'tadigan saylovga qizg'in tayyorgarlik ko'rgan holda o'zining yaqinda bo'lib o'tgan XII qurultoyida 2025-2029-yillarga mo'ljallangan, “Teng imkoniyatlar va adolati jamiyat sari” deb nomlangan yangi Saylovoldi dasturini e'lon qildi.

Saylovoldi dasturimizga, bir tomondan, ilg'or milliy va xorijiy tajriba, ikkinchi tomondan esa zamonaviy sotsial-demokratiyaning adolatlik, erkinlik, tenglik va birdamlik kabi xalqchil g'oyalari, maqsad va vazifalari milliy qadriyatlarimizga uyg'un holda singdirildi.

Saylovoldi dasturimizda sotsial-demokratiyaning jamiyatda ijtimoiy adolati qorov toptirishga qaratilgan g'oyalari to'liq mos keladi. Bu borada partiya huquqiy davlat barpo etish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish kabi 9 ta yo'nalishda qator vazifalarni belgilab olgani ham dasturimizning muhimligi va uning mazmuni o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

HUQUQIY DAVLAT  
BARPO ETISH — OLIY  
MAQSADIMIZ

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi dasturida Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi ta'minlangan hamda inson huquqlari va erkinliklari himoyalangan huquqiy davlat qurish bosh maqsad sifatida belgilangan.

Shu bois, Saylovoldi dasturimizning birinchi — “Huquqiy davlat barpo etish — oliy maqsadimiz” deb nomlangan yo'nalishida barcha fuqarolar va mansabdor shaxslar o'z hayot tarzini qonun asosida yo'lga qo'yishi huquqiy davlatning muhim belgisi sifatida qayd etilgan bo'lib, buning uchun, eng avvalo, jamiyatda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash lozimligi ta'kidlangan.

Saylovoldi dasturimiz mazkur yo'nalishida huquqiy davlatni barpo etish yo'lidagi ustuvor vazifalarga e'tibor qaratilgan bo'lsak, eng avvalo, sud-huquq tizimiga katta ahamiyat berilganini ko'ramiz.

Darhaqiqat, sud-huquq tizimidagi islohotlarni izchil davom ettirish hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biri. Sababi, fuqarolarimiz sudni odamlarni qoralaydigan, jazalaydigan organ deb emas, aksincha, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan organ, deb qarashga erishish muhim sanaladi. Buning uchun, avvalo, sudyalarning qonuniylik, asoslanganligi va adolatligi, sudyaning esa xolisligi va beg'arazligiga shubha tug'diruvchi omillar mavjud bo'lmasligi lozim.

Saylovoldi dasturimizda bu borada fuqarolarga yengillik yaratish hamda sudlar faoliyatida sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida har bir tuman va shaharda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarni tashkil etish, sudyalarning huquqlarini yuqori darajada kafolatlash va ish yuklamlarini maqbulashtirish maqsadida “Sudyalarning maqomi to'g'risida” alohida qonun qabul qilish, davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishini nazarda tutuvchi “Davlat kompensatsiyasi to'g'risida” qonun qabul qilish hamda jinoyatdan jabrlanganlarga ko'maklashish jamg'armasini tashkil etish kabi muhim takliflarni ilgari surganmiz.

Shuningdek, Saylovoldi dasturida sudyalarning bosqichma-bosqich ko'paytirib borish

va ularning ixtisoslashuvini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu pirovardida odil sudlov sifatini yaxshilashga hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoyalashga xizmat qiladi.

Saylovoldi dasturimiz mazkur yo'nalishida, shuningdek, jamiyatni o'ylantirib kelayotgan yana bir muammo — piyodalar ishtirokida sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalari, ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etishga qaratilgan keskin choralar ko'rish bo'yicha ham tashabbuslarni ilgari surganmiz. Xususan, haydovchilarning tomonidan yo'l harakati qoidalarini muntazam buzganlik uchun jazo choralari kuchaytirish, shu jumladan, transport vositasini mast holda boshqarigan yoki og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holatlarda umrbod haydovchilik huquqidan mahrum qilish taklifi nihoyatda dolzarb tashabbus sanaladi.

O'zbekistonda har beshta o'limning bittasi yo'l-transport hodisalari hissasiga to'g'ri keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq iqtisodiy xarajatlar O'zbekiston yillik yalpi ichki mahsulotining 2,8 foiziga teng.

Bundan tashqari, yo'llarda piyodalar va avtotransport vositalari harakatlanishi uchun yetarli darajada infratuzilma yaratilmagani, yo'llar piyodalarga moslashtirilgan ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Partiyamiz mazkur muammoga yechim sifatida tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarida piyodalar huquqlarining ustuvorligini so'zsiz ta'minlashni taklif etmoqda. Shu bilan birga, piyodalar yo'llarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng sharoitlar yaratish, svetforlarda maxsus tovush chiqaruvchi qurilmalar o'rnatishni ham taklif qilganmiz. Ushbu takliflarimiz saylovchilarga manzur bo'lishi shubhasizdir.

ADOLATLI FUQAROLIK  
JAMIYATI VA DEMOKRATIK  
INSTITUTLARNI  
RIVOJLANTIRISH

Ushbu yo'nalishda Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining vakolatlarini yanada kengaytirish taklif

## SAYLOVOLDI DASTURIMIZGA ZAMONAVIY SOTSIAL-DEMOKRATIYANING ADOLATLILIK, ERKINLIK, TENGLIK VA BIRDAMLIK KABI XALQCHIL G'OYALARI, MAQSAD VA VAZIFALARI MILLIY QADRIYATLARIMIZGA UYG'UN HOLDA SINGDIRILGAN.

qilingan bo'lib, parlamentarizm va parlament demokratiyasini rivojlantirish yo'lidagi vazifalar birma-bir sanab o'tilgan. Jumladan, “Raqamli parlament” tizimini takomillashtirish, hududiy kengashlar deputatlarining vakolatini kuchaytirish, ularning hokimlar bilan huquqiy munosabatlarida o'zaro tiyib turish mexanizmini takomillashtirish maqsadida mahalliy kengash deputatlariga tegishli hokimlarga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqini berish kabi yangi mexanizmlar taklif qilingan.

Saylovoldi dasturimiz ushbu yo'nalishida, shuningdek, so'z va matbuot erkinligi, axborot olish va uni tarqatish huquqini to'laonli ro'yog'ga chiqarish, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan OAV mustaqilligini ta'minlash, jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirish, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirib borish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilangan.

Ayniqsa, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlar tarqalishi va firibgarlikning oldini olishga qaratilgan mexanizmi joriy etish, xususan, ogohlilik chorlovchi kontentlarni yanada ko'paytirish, yolg'on xabarlar va firibgarlikning yangi

turlari haqida doimiy, o'ziga xos shaklda ogohlantirib turuvchi “Stopfeyk” (STOP FAKE) platformasini yaratish kabi takliflar haqiqatan dolzarb ahamiyatga ega.

IQTISODIYOTNING  
BARQAROR RIVOJINI  
TA'MINLASH

Saylovoldi dasturimizning milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni o'z ichiga olgan uchinchi yo'nalishida eng ustuvor vazifa davlatning iqtisodiy faoliyatini natijasida yuzaga kelgan daromadlarni adolati taqsimlashni ta'minlaydigan iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish ekanini alohida qayd etilgan.

Bu borada, ayniqsa, soliqlar tortishning progressiv stavkalarini hayotga joriy etish va shu orqali daromadlar tengsizligini kamaytirishga erishish taklif qilingani ayni muddaodir. Progressiv soliq tizimini joriy qilish dunyo mamlakatlarida sotsial-demokratik yo'nalishdagi siyosiy partiyalarning an'anaviy g'oyalardan biri bo'lib, daromad miqdorining ortib borishi bilan soliq stavkasining ham oshib borishiga asoslanadi.

Partiyamizning bo'xona va soliq imtiyozlarini sohibiy taqdim etilishiga

qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, adolati va xavfsiz mehnat sharoitlariga ega bo'lishini tashkil etishga ko'maklashish hamda “Faxriylar to'g'risida”gi qonuni ishlab chiqish kabilarni alohida ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirish, xususan, maktablarda “Texnologiya” fanini o'qitishni zamon talablari asosida yo'lga qo'yish va “Robototexnika” fanini joriy etish, sun'iy intellekt asosida “aqli maktab” dasturini ta'lim tizimiga joriy etish, talabalar turar joylari barpo etishni kengaytirish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, O'zbekiston Respublikasining “Ilm-fan xodimlari kunini belgilash to'g'risida”gi qonunini qabul qilish kabilarni ham Saylovoldi dasturimizdan o'rinda olgan bo'lib, ular o'ta dolzarb ahamiyatga ega takliflar hisoblanadi.

XALQ SALOMATLIGI —  
ULKAN BOYLIK, FAROVON  
TURMUSH GAROVI

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jumladan, sog'liqni saqlash sohasi



tizimimizda alohida o'rinda tutadi. Zero, har qanday mamlakatning eng katta boyligi xalqning salomatligidir.

Saylovoldi dasturimizning ushbu yo'nalishida tibbiyot sohasi daromad olish manbaiga aylanib qolmasligi uchun nodavlat tibbiyot tashkilotlarini “tijorat tashkiloti”dan notijorat tashkilotga o'tkazish, nodavlat tibbiyot muassasalarida tibbiy xizmatlar uchun to'lovlar miqdori ustidan davlat nazoratini o'rnatish taklif qilingan.

Albatta, xususiy sektorning davlatning muayyan qonun-qoidalarini asosida faoliyat yuritishi va davlat nazorati ostida bo'lishi lozimligi nuqtayi nazaridan bunday takliflar sotsial-demokratiya mafkurasiga to'liq mos keladi.

Dasturimiz ushbu yo'nalishida, shuningdek, butun dunyoda zamonaviy tendensiyaga aylanib borayotgan “aqli tibbiyot” tizimi ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu borada partiyamiz mazkur tizimning huquqiy asoslarini ishlab chiqib, sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish, “elektron poliklinika” va “yagona elektron anketa” tizimlarini yo'lga qo'yishni maqsad qilgan.

Shuningdek, Saylovoldi dasturimizda farmatsevtika sohasini tartibga solish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ham qamrab olingan. Xususan, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuv va noqonuniy muloqotga chek qo'yish, farmatsevtikning tibbiyot muassasalariga g'arazli homiylikni to'liq taqiqlash, bu kabi harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilash taklifi etilgani ayni muddaodir.

OILANI  
MUSTAHKAMLASH,  
XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-  
QUVVATLASH, YOSHLARNING  
IMKONIYATLARINI  
KENGAYTIRISH

Partiya saylovoldi dasturining ushbu yo'nalishida xotin-qizlar va gender teng huquqlilik masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, xotin-qizlar muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ayniqsa, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish choralari kuchaytirish masalalariga oid aniq takliflar ilgari surilgan.

Zo'ravonlikning turli ko'rinishlariga uchragan ayollarga huquqiy ko'mak ko'rsatish bo'yicha maxsus elektron platforma yaratish, qonunchilikka ijro hokimiyatida rahbarlarning kamida 30 foizi ayollar bo'lishiga oid qoida kiritish bo'yicha takliflar ilgari surilgani diqqatga sazovordir.

Yoshlar va bolalarning huquqlarini to'laonli ta'minlash, ularning ta'lim-tarbiya olishi va intellektual rivojlanishi

Pirovard natijada mamlakatimiz “Transparency International” tashkilotining korrupsiyani idrok etish indeksida 47 pog'ona (2013-yildagi 168-o'rindan 2023-yilda 121-o'ringa) ko'tarildi va bu borada Markaziy Osiyoda eng yuqori o'rinni egallab turibdi.

Biroq erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmay, ushbu yo'ldagi sa'y-harakatlarni izchil davom ettirish biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Partiyamiz mazkur muammoning oldini olish bo'yicha qator takliflarni ilgari surmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi maqomini kengaytirish, korrupsiya faktlarini “dastlabki o'rganish” (korrupsiyon surishtiruv) institutini kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, partiyamiz korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar, ayniqsa, talon-taraj qilish holatlari uchun jazoni kuchaytiruvchi, yetkazilgan zararlarini o'n barobar miqdorda undirishni nazarda tutuvchi normalarni qonunchilikka kiritish, davlat daromadiga undiriladigan barcha to'lovlar (jarimalar, davlat bojlari, vizi'mlar va boshqa majburiy undiruvlar) yag'irlik va idoralar g'aznasiga emas, to'laonligicha davlat byudjetiga tushishini ta'minlash tarafdori.

TINCHLIKSEVAR,  
PROGRESSIV TASHQI  
SIYOSAT, MILLIY  
MANFAATLAR  
USTUVORLIGI

“Adolat” partiyasining tashqi siyosiy ustuvorliklari pragmatizm, milliy manfaatlarni himoya qilish, asosiy hamkorlar o'rtasida muvozanatni saqlash tamoyillariga asoslanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro jarayonlardagi ishtiroki sezilarli darajada kengaydi. An'anaviy hamkor va yetakchi mamlakatlar, shuningdek, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirish, ular bilan muvozanatli va doimiy muloqot olib borish orqali mamlakatimizning milliy manfaatlarini faol ilgari surilmoqda.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari har qachongidan ko'ra ancha kengaygani e'tiborga molikdir. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, transchegaraviy, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaralar punktlarini kesib o'tish kabi muammolarni tomonlar o'rtasida o'zaro ruhdan hal qilib kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz tinchlikparvar tashqi siyosatini izchil davom ettirish bilan bog'liq oldimizda hali bir qator vazifalar ham borki, ular Saylovoldi dasturimizning mazkur yo'nalishida o'z aksini topgan.

Saylovoldi dasturida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari surish maqsadida parlament diplomatiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalanish vazifasi qo'yilgani bejiz emas. Zero, parlament diplomatiyasi bevosita xorijiy mamlakatlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining Saylovoldi dasturi mamlakatimizni har tomonlama muvozanatli va tizimli rivojlanish yo'lini taklif qiluvchi strategik hujjatdir. Uning asosida ijtimoiy adolat, imkoniyatlar tengligi, qonun ustuvorligi va insonga g'amxo'rlik qadriyatlarini yotadi. Biz aynan shunday g'oyalarga O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va ravnaq topishi uchun kafolat bo'la oladi deb ishonamiz.

Adolat uchun birlashaylik!  
Abdukamol RAHMONOV,  
Islom HAMROYEV,  
O'zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi raisi o'rinbosarlari

# SAYLOVOLDI TASHVIQOTI — SAYLOV KAMPANIYASINING HAL QILUVCHI BOSQIHI



Boshlanishi 1-betda

## Saylovoldi tashviqoti nima?

Saylov kodeksida saylovoldi tashviqotini yuritish tartibi, usul va shakllari belgilangan. Unga ko'ra, saylovoldi tashviqoti saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Boshqacha aytganda, aynan saylovoldi tashviqoti jarayonida nomzodlar va siyosiy partiyalar saylovchilarni ularga ovoz berishga ishonitirish maqsadida o'z saylovoldi platformasining asosiy yo'nalishlari va mazmun-mohiyati, istiqboldagi rejalari bilan tanishtiradi. Saylov natijalari saylovoldi tashviqoti qanchalik ishonchli, xalqchil va tizimli tashkil etilganiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq hisoblanadi.

Saylovoldi tashviqoti nomzodlarni va partiya ro'yxatini ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanadi va ovoz berish boshlanishidan 1 kun oldin tugatiladi. Bu safargi saylov kampaniyasi davrida saylovoldi tashviqoti 2024-yil 22-sentabrdan boshlanadi va jarayon qizg'in pallaga kirib bormoqda.

Bu jarayon davrida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning OAVda chiqishlari siyosiy partiyalarga saylovda ishtirok etishi uchun ijozat berilgan navbatini inobatga olib, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- birinchi — Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi;
- ikkinchi — O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi;
- uchinchi — O'zbekiston Ekologik partiyasi;
- to'rtinchi — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi;
- beshinchi — O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi.



Ixtiyor BEKOV,  
yuridik fanlar doktori,  
professor

## Saylovoldi tashviqotini yuritish turlari, shakllari va usullari

Deputatlikka nomzodlarning saylovda muvaffaqiyat qozonishining muhim omillaridan biri saylovoldi tashviqotining eng samarali usullarini tanlay olish, ishga kreativ yondashish, saylovchilarning ko'nglidan joy ola bilishidir. Shu maqsadda nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalar va ularning vakillariga saylovoldi tashviqotini qonunda taqiblanmagan istalgan turlari, shakllari va usullaridan foydalangan holda amalga oshirish huquqi berilgan.

Tashviqot quyidagicha tarzda olib boriladi:

- siyosiy partiyaning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni o'zining deputatlikka nomzodlarini yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish;
- nomzod va siyosiy partiya to'g'risidagi axborotni uni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish.

Tashviqot omma oldida ochiq munozaralar, bahslar, matbuot anjumanlari, fuqarolarning yig'ilishlari, intervyular,

ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, roliklarni joylashtirish shaklida yuritilishi mumkin.

Xususan, tashviqotning mazkur shakllari ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek, internet jahon axborot tarmog'i, bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqalarni) chiqarish hamda tarqatish, saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Tashviqot yuritilayotganda davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda hajmiga ko'ra bir xil bo'lgan efir vaqtni va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi.

Davlat ommaviy axborot vositalarida haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni, shuningdek, nodavlat ommaviy axborot vositalarida qonunchilikka muvofiq efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha uchun teng va bir xil bo'lishi kerak.

Tashviqot maqsadida ommaviy axborot vositalaridan bepul foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalarning fikrini inobatga olgan holda tegishli saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Saylovoldi tashviqotini yuritish shakli va usullari bu bilan chegaralanmaydi. Tashviqot davrida uni yuritishning qonunchilikda taqiblanmagan boshqa turlari, shakllari va usullaridan ham foydalanilishi mumkin.

## Saylovoldi sog'lom raqobat — saylovchi erkin tanlovning muhim omili

2024-yil 21-sentabr kuni siyosiy partiyalar va Markaziy saylov komissiyasi hamkorligida ishlab chiqilgan saylovoldi tashviqotga oid o'z-o'zaro qoidalari partiyalarning rahbarlari tomonidan imzolandi.

Demokratik mamlakatlar amaliyoti ko'rsatadiki, ularda saylov jarayonida siyosiy partiyalar yoki nomzodlar o'rtasida dezinformatsiya, infosiz raqobatning oldini olish, adolati kurashni ta'minlash, saylovoldi tashviqoti davomida nomzodlarning bir-biriga nisbatan hurmat saqlash va huquqiy chek-



lovlardan tashqari axloqiy me'yorlarga rioya qilish maqsadida kelishuvlar amalga oshiriladi. Xususan, bu yil bo'lib o'tgan Yevroparlament saylovida siyosiy partiyalar tomonidan shu kabi bitimlar imzolangan.

Umuman olganda, bu kabi qoidalar saylovchilarni manipulyatsiya qilish va unga noto'g'ri ma'lumotlar tarqatishning oldini olishga qaratilgan, bu saylovchilarga nomzodlar va ularning dasturlari to'g'risida aniq hamda obyektiv ma'lumot olishga imkon beradi.

O'z-o'zaro qoidalarga muvofiq, siyosiy partiyalar vakillari saylovoldi tashviqoti jarayonlarida Konstitutsiya, Saylov kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlarini talablariga qat'iy rioya qilish, siyosiy partiya vakillarining shaxsiy hayoti daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va ishonchli obro'sini hurmat qilish, shuningdek, ijtimoiy axloqqa zid har qanday axborotni tarqatmaslik, saylovchilarga nisbatan tovlamachilik, qo'rqitish yoki majburlash, o'zgaracha noo'rin ta'sir choralarini qo'llamaslik va haq evaziga o'ziga og'dirib omlaslik kabi majburiyatlarini zimmasiga oladi.

## Sun'iy intellektning saylovoldi tashviqotiga ta'siri

Asrimizning yangi texnologiyalaridan biri sifatida sun'iy intellekt barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelmoqda. Saylovoldi tashviqoti jarayonlari ham bundan xoli emas.

## Saylovoldi tashviqotini yuritishdagi o'ziga xos me'yorlar

Saylovoldi tashviqotini yuritishda qator holatlar taqiqlangan. Saylov kodeksi hamda Markaziy saylov komissiyasining tegishli qarorlari bilan o'rnatilgan me'yorlar saylovoldi tashviqotining xolis o'tkazilishiga xizmat qiladi va xalqaro standartlarga to'liq javob beradi.

Saylovoldi tashviqoti jarayonlarining xolisligi, qonuniyligi va adolatligini ta'minlash maqsadida "noqonuniy texnologiyalar"dan foydalanish taqiqlangan. Masalan, tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek, pul mablag'lari tarqatish bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, noto'g'ri axborot, shuningdek, nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatish mumkin emas.

Yana bir muhim talab, saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqot o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashviqot jarayonida davlat hokimiyati resurslarining suiste'mol qilinishi taqiqlangan. Unga ko'ra, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sudyalari, saylov komissiyalari a'zolari hamda diniy tashkilotlar professional xizmatlarining saylovoldi tashviqotini yuritishi taqiqlanadi.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o'z mansab va xizmat mavqeidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyani yoki nomzodning foydasiga yo'xd unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

Umuman, samarali saylovoldi tashviqoti saylovda muvaffaqiyat qozonish kalitidir. Siyosiy partiyalar va nomzodlar o'z g'oyalarini saylovchilarga yetkazish uchun zamonaviy va kreativ usullardan foydalanishi zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Bugungi kunda milliy saylov qonunchiligimiz davrga hamohang tarzda muntazam takomillashtirilib, siyosiy partiyalar va ularning nomzodlariga ushbu jarayonda faollik ko'rsatishiga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Zero, o'z siyosiy g'oyasi va tashabbuslariga saylovchilarni ishonitirish uchun siyosiy partiya va deputatlikka nomzodlarga saylovlarda kutilgan natijaga erishadi.

## Munosabat



Qahramon ERGASHEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasining Sanoat, qurilish va  
savdo masalalari  
qo'mitasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Uy-joylar, turli bino va inshootlar bilan birga hududlarimizda ijtimoiy infratuzilma obyektlari, ko'cha va maydonlar, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, ta'lim, tibbiyot muassasalari, bog' va xiyobonlar, favvoralar, bolalar maydonchalari, dam olish maskanlari qurilayotgani odamlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratmoqda.

Shu bilan birga, sohaning huquqiy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, mamlakatimizning barcha hududida ilg'or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangi-yangi qurilish tashkilotlari paydo bo'lmoqda. Qurilish materiallari industriyasi yuqori sur'at bilan rivojlanib, malakali yetuk kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 10-sentabrda imzolangan "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham tom ma'noda ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu hujjat O'zbekistonda

yanada samarali va shaffof shaharsozlik tizimini yaratish hamda har bir fuqarо munosib hayot kechirishi va xavfsiz kelajakka ega bo'lishi mumkin bo'lgan zamonaviy hududlarni barpo etishga zamin hozirlaydi.

Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar tufayli sohada sog'lom raqobat muhiti paydo bo'lib, ichki manbalar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyati kengaymoqda. Obyektlarni loyihalashtirish va qurishda innovatsion yechimlar, zamonaviy loyihalar hamda yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalardan foydalanilayapti. Bular qurilish sifatini oshirish bilan bir qatorda bino va inshootlar dizaynini yaxshilab, zamon talablariga mosligini oshirayotir.

Joriy yilning birinchi yarmida qurilish ishlari hajmi 2023-yilga nisbatan 10 foizdan ziyod o'rtib, salkam 80 trillion so'mga yetgan. Sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda. Shuning ortidan ko'p yillardan buyon ijarama-ijara



# SHAHARSOZLIK

## KENGASHLARI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ JARAYONLAR

# TO'LIQ RAQAMLASHTIRILADI

yashab, uy-joy olish niyatida yurgan minglab odamlarning orzu-istaklari ro'yobga chiqdi.

Qurilish tarmog'idagi ulkan ishlar, avvalo, inson qadriini ulug'lash, hayotiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilayotgani bilan diqqatga sazovor. O'tgan yili birgina investitsiya dasturi doirasida 2526 ta ijtimoiy va infratuzilma obyektida qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilgani ham shundan dalolat beradi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 23-sentabr kuni qurilish industriyasi va qurilish materiallari tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sohadagi yutuqlar tahlil qilinib, uzoq muddatga mo'ljallangan aniq, maqsadli vazifalar belgilab berildi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, bugun yurtimizda quvvati 140 ming tonna bo'lgan 7 ta bazalt korxonasi bor. Binokorlikda bu mahsulot keng qo'llanayotgani natijasida yangi uy-joy va ijtimoiy binolarda energiya sarfi 20 foizgacha kamaygan. Quyosh nurini qaytaruvchi oyna, vermikulit aralashmasi kabi materiallarni ishlatib, energiya sarfini yana 2 barabar

qisqartirsa bo'ladi. Binolarning fasad qismida fibro tolali paneldan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sement va boyitilgan qum yurtimizda yetarli. Shu bois, bu kabi muhim qurilish materiallarini ishlab chiqarishga ko'rsatmalar berildi.

Qurilish materiallarini tayyorlashda energiya sarfini kamaytirish juda muhim. Chunki bu mahsulotning tanarxiga, xaridorgiriligiga ta'sir qiladi. So'nggi ikki yilda tarmoqda ishlab chiqarish 1,2 karna oshgan bo'lsa-da, shunday choralar hisobiga energiya sarfi 1,3 barobar, energiya sig'imi 1,6 barobar kamaydi. Misol uchun, "Qizilqumsement"da issiqlik almashish uskunalarini rekonstruksiya qilinib, yiliga 37 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaldi.

Bugun ilg'or xorijiy korxonalar issiqlik energiyasidan qayta foydalanish orqali elektr olish texnologiyasini faol qo'llamoqda. Shu asosda energiya sarfi yuqori bo'lgan 34 ta korxonada energiya auditini yakunlab, yiliga 300 million kilovatt-soat elektrni iqtisod qilish mumkinligi aytiladi.

Hozir yurtimizda ishlab chiqarilayotgan 170 nomdagi qurilish materialidan 97 tasi bo'yicha ichki talab qoplangan. Biroq bozor to'liq o'rganilmay, shunga o'xshash loyihalar yana rejalashtirilgan. Shu bois, endi bozor to'yingan qurilish materiallari ro'yxati e'lon qilindi. Ichki va tashqi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi mahsulotlar bo'yicha takliflar tayyorlanadi va ochiq portalgga joylashtiriladi.

Joylarda turizm, savdo va servisini rivojlantirish maqsadida kichik hududlarning master rejalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, Buxoro va Navoiy viloyatlarida ishlar jadal bo'lib, dastlabki yerlar tadbirkorlarga sotilgan. Yig'ilishda bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan ekan, ayrim viloyatlarda bu jarayon sust ekani ko'rsatib o'tildi. Viloyat hokimlariga hududlarni kompleks rivojlantirish va urbanizatsiyalashtirish bo'yicha 48 ta, turizm zonalarini tashkil etishga qaratilgan 20 ta, yo'l bo'yida savdo va xizmat ko'rsatishni kengaytirish bo'yicha 68 ta master reja ijrosini jadalashtirish vazifasi qo'yildi.

Videoselektor yig'ilishida qurilishlari sifati

masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Ayrim pala-partish loyihalar odamlarning e'tiroziga sabab bo'layotgani qayd etildi. Qurilayotgan har bir inshoot bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilishi belgilandi. Buning uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya bo'yicha boshqarmalarida shtab tashkil qilindi. Davlat hisobidan qurilayotgan har bir binoga videokameralar o'rnatilib, inspeksiya ma'lumotlar onlayn borib turadi. Bu qurilish ishlari ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, eng avvalo, sifatga katta e'tibor qaratilishiga turki bo'ladi.

Shuningdek, noqonuniy qurilishlar bo'yicha mahalla raislari va jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi, har bir qurilayotgan imorat oldida QR-kodli ma'lumotlar yozib qo'yilishi, bu bo'lmasa, qurilish noqonuniy hisoblanishi, bular o'z navbatida, aholini arzon va sifatli uy-joy bilan ta'minlash barobarida qurilish sifatinii oshirishga ham xizmat qiladi.

Yig'ilishda mutasaddilarga qurilish nazoratida yangi raqamlashgan tizim yaratish, tegishli inspeksiya faoliyatini takomillashtirish

bo'yicha topshiriqlar berildi. Har bir viloyatda tashkil qilingan Shaharsozlik kengashlari faoliyati bo'yicha ham e'tirozlar ko'pligi, kengashga kiritilgan loyihalarni ko'rib chiqish va kelishish oylab cho'zilayotgani qayd etildi.

Bu jarayonda ushbu kengashlar bilan bog'liq holatlar to'liq raqamlashtirish, endi unga barcha loyihalar "Shaffof qurilish" platformasi orqali elektron kiritilishi belgilandi. Kengash a'zolari esa loyihani quyi tizimi bilan shu platformada elektron kelishadi. Loyihani ko'rib chiqish muddati esa 15 kundan oshmaydi.

Uy-joylar qurilishida aldov, tushunmovchiliklar uchrab turibdi. Shu bois, endi uy-joy sotib olish bo'yicha kafolati "eskrou" tizimi joriy qilinadi. Bunda developerlar o'zi qurayotgan uyul sotuvini tashkil qilish bo'yicha banklar bilan shartnoma tuzishi, xonadon olmoqchi bo'lganlar pulni quruvchiga emas, to'g'ridan to'g'ri bankka topshirishi ayni muddado bo'ladi. Unga ko'ra, banklar yig'ilgan pulni quruvchiga resurs sifatida beradi. Ya'ni banklar quruvchi va xaridor o'rtasida ko'priklar bo'lib, uy-joyning o'z vaqtida va sifatli qurilib, egasiga topshirishiga kafil bo'ladi. Mutasaddilarga ushbu yangi tartiblarni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha ko'rsatma berildi. Bularning barchasi xalqimizning hayot sifati va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bunyodkorlik ko'lami yildan yilga kengayib bormoqda. Yangi uy-joylar, yirik zavodlar, zamonaviy infratuzilma obyektlari qurilmoqda. Tabiiyki, bunday katta hajmdagi ishlar sifati va o'z vaqtida bajarish uchun malakali quruvchilarga ehtiyoj yuqori. Endi qurilishdagi ishchilar malakasini baholaydigan tizimning amaliyotga tatbiq etilishi, bunda kasblarga malaka darajasi va ish o'rinalarga aniq talablar belgilanishi, uni egallashi uchun talabgorlar professional ta'lim muassasalarida o'qitilishi qisqa vaqtda o'z samarasini beradi.

Dunyoda ustoz mehnatidan og'ir mehnat yo'q. Jamiyatning buguni va kelajagi, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lim tizimining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq. Shunday ekan, ularga ehtirom ko'rsatish har birimizning burchimizdir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



Ilm-fan

## CHIROQCHIDA ZAMONAVIY MAKTAB ISH BOSHLADI

Yurtimizda so'nggi yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, soha va tarmoqlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, "aqli dasturlar"ning qo'llanish jabhasini kengaytirish bo'yicha davlatimiz rahbari hamda hukumatimiz tomonidan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va ijrosi ta'minlanmoqda. Bunga yaqqol misol tariqasida hududlarda ish boshlayotgan zamonaviy o'quv muassasalari, Axborot texnologiyalari markazlari kabi qator ta'lim maskanlarini aytish mumkin.



Jumladan, shu hafta Chiroqchi tumanidagi 1-maktab huzurida O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, professor Qalandar Abdurahmonov nomidagi "Inson kapitali va sun'iy intellekt" ilmiy maktabining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ilmiy muassasaning aynan olim ta'lim olgan maskanda tashkil etilgan Chiroqchi tumanidagi bilimga chanqoq yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ilmiy maktab ochilishi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda Qashqadaryo viloyati hokimi M.Azimov, Q.Abdurahmonovning sinfdoshlari va shogirdlari, tumandagi sektorlar rahbarlari, olimlar, nuriyalar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. — Yangi ilmiy muassasaning ochilgani nafaqat 1-maktab o'quvchilari, balki tumandagi barcha yoshlarning ilm-fanga qiziqishini

oshirishda katta ahamiyatga ega, — deydi Chiroqchi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri Farhod Jumanov. — Bugun zamonaviy ta'lim olish, ayniqsa, yangi texnologiyalar asosida bilimni oshirishga o'g'il-qizlarning intilishi kuchli. Shu bois, bu yerda barcha zarur imkoniyat yaratilgan. Xususan, maktab kerakli jihoz va uskunalari bilan yetarli darajada ta'minlangan. Bundan tashqari, iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish, turli tanlovlar tashkil etish, fan olimpiadalarida iqtidorini namoyish etishiga keng yo'l ochilgan. Maktab qat'iy reja asosida faoliyat yuritishi belgilangan. Shu bilan birga, eksponatlar muntazam yangilab boriladi va maktab inventariga kiritiladi. Ularning saqlanishiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Ilmga qiziquvchan yoshlar va yangiliklarga intiluvchan o'qituvchilarning o'z bilim va tajribasini muttasil oshirib borishi uchun zarur sharoit yaratiladi. Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, professor-o'qituvchilari ishtirokida muntazam ilmiy-amaliy tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, o'quv yili davomida tumandagi boshqa umumta'lim maktablaridagi yoshlarning inson kapitali va sun'iy intellekt bo'yicha bilimni oshirib borish uchun hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning doimiy ravishda bilim va malakasini oshirib borishga e'tibor qaratiladi. Mehnati rag'batlantirib boriladi.

Tadbir qatnashchilari "Maktab — oliy ta'lim — akademiya" integratsiyasi asosida tashkil etilgan ilmiy maktab muzeyida akademik Q.Abdurahmonovning hayot yo'lini aks ettiruvchi fotosuratlar jamlanmasi, olimning yoshligini yodga soluvchi tarixiy buyumlar, qo'lyozmalar, ilmiy asarlar bilan yaqindan tanishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olishdi.

— Bugungi yoshlarga havasim keladi, — deydi chiroqchilik faxriy o'qituvchi Sayyora Rahmonova. — Bunday ta'lim maskanlari avvallari faqat orzu edi. Yangi bilim muassasasining o'quv xonalarini ko'zdan kechirib, bu yerda ilm olishga chog'lanayotgan baxtli bolalar quvonchiga sherik bo'ldim. Bir paytlar eski parta, eski doskadan iborat qorong'i xonalarda dars o'tib, toliqib qolardik. Bugun esa barchasiga boshqacha. Akademik ustozimizga ham rahmat, shunchalik e'tibor qaratib, yangi ilmiy muassasa tashkil etilishi o'ziga xos jasorat namunasi deb bilaman.

Shu kuni tadbirni nafaqat ishtirokchilar, balki qator tashkilot va korxonalar, ta'lim muassasalari rahbarlari, olimlar onlayn platforma orqali kuzatib bordi hamda chiroqchilik yoshlari yangi ta'lim maskani bilan tabrikladi. Tadbir davomida o'quvchilarning musiqiy chiqishlari barchaga manzur bo'ldi.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

2024-yil 28-sentabr, 198-son

Dil izhori

Muallim

## MISLI YONIB TURGAN SHAM

Azizali QURBONOV,  
texnika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent

Ustoz so'zi naqadar jarangli, ulug'vor. Har yili 1-oktabr yaqinlashgani sayin saboq olgan, hayot so'qmoqlaridan odimlab borishimizda bizga yo'lbo'shchilik qilgan insonlarni kasb bayrami bilan tabriklashga, dilimizdagi ezgu niyatlarimizni aytishga oshiqamiz.

Har bir kasbning, kasb egalari uchun o'z o'rni bor, biroq O'qituvchi va murabbiylar kuni alohida ajralib turadi. Albatta, har birimiz qaysi sohada mehnat qilmaylik, ustoz va murabbiylarga ehtiyoj sezamiz. Ularning ko'magi zarur bo'ladi.

Avvaliga maktabgacha ta'lim tashkiloti, keyin maktab, navbati bilan oliy ta'lim muassasasida ustozlardan saboq olamiz. Ota-onalarimiz esa bu borada bir umrlik yo'lbo'shchimizdir. Ularning o'g'iti alohida mavzu. Farzandlar ta'lim-tarbiyasiga, yosh avlodni barkamol insonlar etib kamolga yetkazishga katta e'tibor qaratish xalqimizga xos ezgu fazilatlar. "Ustoz otangdan ulug'" degan maqolda ham o'qituvchi va murabbiylarga samimiy ehtirom namoyon.

Bu bayram, avvalo, bilimi va tajribasi, iste'dodi va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'ri, butun borlig'ini ayamay, ma'rifat yo'lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga xalqimiz azaliy hurmat-ehtiromining yaqqol namunasidir.

Yer yuzida inson yaralibidiki, uning kamolotida, shaxs sifatida shakllanishida va jamiyatda o'z o'rni

topishida ustozlarning mehnati, o'rmi beqiyos. Zahmatkash, fidoyi muallim va o'qituvchilar o'z shogirdlariga nafaqat bilim beradi, balki ular qalbiga ezgu fazilatlarini singdirib boradi.

Har bir inson ko'nglida ustozlarga chuqur hurmat, ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'usi bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab va ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi. Ular o'g'iti, pand-nasihatiga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmasligimiz tajribadan ma'lum.

Ota-onamiz kabi kichik yutuqlarimizdan quvonadi, bizdagi ko'rinmas iqtidorni, qobiliyatni ilg'ay oladi, uni rivojlantirishga harakat qiladi. Oddiy tabiatning o'zi ham, taqdirimizdagi hayot ham biz uchun bir ustoz. Tabiat bizga go'zallikdan, hayot esa bardoshdan, sinovlardan, iymondan dars beradi.

Ilm hikmati suvni yondirar. Haqiqatan, ilm shunday qudratga ega. Bu qudratni esa bizga ilmlar sultoni — ustozlarimiz ulashadi. "Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", deya ta'kidlaydi ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy. Darhaqiqat, yosh avlodni ma'nau yetuk, tafakkur olami keng va bilimli insonlar etib tarbiyalayotgan o'qituvchi-murabbiylar timsolida jonajon vatanimiz taraqqiyoti uchun sidqildan xizmat qiluvchi o'g'il-qizlarimiz baxtini ko'ramiz. Yuragi g'ayrat-shijoatga to'la, yoshlar tarbiyasi yo'lidagi mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan aziz, mehriban ustoz-murabbiylarimiz doimo e'zozda.

Dunyoda ustoz mehnatidan og'ir mehnat yo'q. Jamiyatning buguni va kelajagi, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lim tizimining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq. Shunday ekan, ularga ehtirom ko'rsatish har birimizning burchimizdir.

## Nuqtayi nazar



Nodir QOSIMOV,  
Oliy ta'lim,  
fan va innovatsiyalar vazirligi  
boshqarma boshlig'i

Bugun ham shu an'anaga sodiq qolgan holda ta'lim-tarbiyaga davlatning birinchi galdagi muhim masalasi sifatida qarala boshlandi. Globallashtayotgan axborot asrining hamohang ravishda ta'limning o'rt bosqichida ham izchil islohotlarga kirishildi. E'tiborlisi, oliy ta'lim muassasalarida, umuman, barcha o'quv maskanlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqdi.

"Najot — ta'limga, najot — tarbiyada, najot — bilimda" g'oyasining ilgari surilgani ham bejiz emas. Jadid bobolarimiz ham ilm-u urfon, ta'lim millat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashni shiorga aylantirgan edi. Oradan shuncha vaqt o'tganiga qaramay, bu qarashlar, yoshlarni ilmiy qilishga qaratilgan da'vatlar, ziyolilarga ehtiyoj o'zgarigani yo'q. Ayniqsa, bugungi taraqqiyot asrida ta'limning ahamiyati beqiyos ekanini xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilarning ko'rsatayotgan natijalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qachonlardir g'oyasi bilan jamiyatni, millatni uyg'otmoqchi bo'lgan va bu

# TA'LIM-TARBIYA — HAYOT-MAMOT MASALASI

## SHU BOIS, SOHADAGI ISLOHOTLARNI KECHIKTIRISHGA HAQQIMIZ YO'Q

Ta'lim-tarbiya mustahkam yo'lga qo'yilgan jamiyat hamisha obod bo'lgan, gullab-yashnagan. Taraqqiyot bilan bo'ylashgan. Bunga tarixdan ham, bugundan ham misollar yetarlicha. Ko'pchilikning qulog'iga yoshlikdan singib ketgan Ma'mun akademiyasi dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan. Chunki ilm olishga ko'rsatilgan rag'bat o'z mevasini bergan. Aynan olimlarning tadqiqi bilan murakkab masalalarga oson yechimlar topilgan. Eng muhimi, ilm sohiblari el nazaridagi shaxslarga aylangan. Har tomonlama e'zozlangan. Shaxsiy hayoti va ilm yo'lidagi barcha xarajati elning o'ziga to'q vakillari va saroy g'aznasidan to'liq qoplangan. Natija va samaradorlik ham shunga yarasha bo'lganiga moziy guvoh, albatta.

yo'lda jonidan kechgan ma'rifatparvar bobolarimizning nomi oqlandi. Ular ilgari surgan g'oyalar esa yoshlarimiz ta'limiga tatbiq etilyapti.

Istiqlolning ilk yillarida bor e'tibor ta'limni tubdan isloh qilish, sovetcha mafkura bilan yo'g'rilgan darslik va adabiyotlardan voz kechib, milliy darsliklar yaratishga qaratildi. Davlat o'z tili va ramzlariga ega bo'ldi. Istiqol davrining ilk o'quvchilari endi sobiq ittifoqning olimi shoirlarini emas, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ulug' ajdodlarimiz, ma'rifatparvar jadidlar tarixini o'rgana boshladi.

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyotida "Najot — ta'limga, najot — tarbiyada, najot — bilimda" konseptual g'oyasi doirasidagi islohotlar davrini tahlil etish maqsadiga muvofiq. Bu davr ikki bosqichdan iborat: birinchi bosqich 2016-yil sentabrdan 2022-yilgacha, ikkinchi bosqich esa

2022-yildan bugungacha qadar bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari, ziyolilar qatamli bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi a'zolari, yetakchi oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirok etdi. Mamlakatimizda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi. Aynan mazkur uchrashuv O'zbekiston taraqqiyotida ilm-fanni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Jumladan, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash



sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida qator muhim chora-tadbirlar belgilab berildi. Prezidentimiz iqtisodiyotimizning barcha sohavi rivojida ilm-fanning o'rni, ahamiyati g'oyat katta ekanini, bu borada davlatimiz birinchi g'aldan Fanlar akademiyasi va olimlarga suyanishi, fan va ishlab chiqarish hamkorligi bugun nihoyatda dolzarb ekanini alohida ta'kidladi.

Birinchi davrda o'tgan 5 yilda O'zbekistonning ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari borasidagi siyosati tubdan o'zgardi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash va yangi bog'chalarni qurish uchun 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish dasturi hamda 2030-yilga qadar maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80,8 foizga yetkazish maqsad qilingan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

2020-yili yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shu asosda yurtimiz taraqqiyotida ta'lim sohasidagi munosabatlarini tartibga solishning yangi tartiblari belgilandi. Xususan, ta'lim ustuvorligining tan olinishi, bilim olish shaklini tanlash erkinligi, o'qitish

sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmastigi, teng imkoniyatlar ta'minlanishi, ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati, uzluksizligi va izchilligi mustahkamlandi. Shuningdek, o'n bir yillik ta'lim hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlash majburiyligi, davlat ta'lim standartlari va talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuv yagonaligi va tabaqalashdirilgani, insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi, jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlandi. Bundan tashqari, o'qitish tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi, bilim, qobiliyat va iste'dod rag'batlantirilishi, ta'lim jabhasida davlat va jamoat boshqaruvi uyg'unligi, ochiqlik va shaffoflik ham nazarda tutildi.

Yangi tahrirdagi qonunda mamlakatimizda ta'lim shakli va mazmuni kengroq ochib berildi. Xususan, qonunning 7-moddasida ta'lim turlari quyidagilardan iborat ekanini belgilandi: maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim.

Yosh avlod tarbiyasiga, ma'nau yuksalishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida yangi o'quv yilida yoshlar tarbiyasi, ularni qo'llab-quvvatlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni belgilab olganmiz.

"Najot — ta'limga, najot — tarbiyada, najot — bilimda" ezgu g'oyasining yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rini konseptual asoslari 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishdir. Ularning ijrosini bekamu ko'st bajarishni zimmasiga olgan har bir mas'ul o'z ishini munosib tarzda uddalashga harakat qilmoqda. Prezidentimizning "Ta'lim-tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q", degan da'vati bu yo'lda dasturlamal bo'lmoqda.

1-oktabr —

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

Mangu

O'QUVCHINGMAN, USTOZ!



Qo'ng'iroq qilishdan oldin gapirmoqchi bo'lgan so'zlarimni ichimda takrorlab olaman. Garchi hech kim bu — qat'iy qoida, deb qulog'imga quymagan bo'lsa-da, jurnalist dona-dona, aniq, ravon gapirishi kerak, deb o'zimga uqtiraman. Bu vaqt oralig'ida qahramonimning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasiga joylagan suratiga tikilaman. Qarshi shahridan ekan, ismi Elbek, ko'rinishidan qirg yoshni qoralagan. Yaqinda shogirdi To'liqjon Jaylovov 65-xalqaro matematika olimpiadasida (IMO 2024) kumush medal sohibi bo'ldi. O'qituvchi va murabbiylar kuni yaqin, shu bahona bilan undan ham ustozlari haqida intervyu olishim zarur. Ehtimoliy o'ng'aysiz holatlar uchun o'zimcha chora ko'rib qo'yar, hammasi ko'ngildagidek o'tishini qattiq istardim...

Shu choq qisqa signaldan so'ng Elbek aka go'shakni ko'tarib, men umumam kutmagan nihoyatda samimiy ovozda "Assalomu alaykum, eshitaman", dedi. Xotirjam tortaman. Suhbatdoshimning yuqori salohiyati sodda, beg'araz odamning to'pori, yolg'on aralashmagan xislatlari bilan qo'shilib ketganini anglagach, mubham kayfiyatim tumandek tarqaydi. Unga ustozlar bayrami uchun kichik bag'ishlov sifatida yozilayotgan maqolamni to'g'ri mag'iz bilan o'ldirishim zarurligini tushuntirar ekanman, o'zimni yengil his qildim: u har bir gapimni diqqat bilan eshitar, qisqa, ravon so'zlar bilan ma'qullar, men endi ish yuzasidan emas, shaxsiy iltimos va go'zal suhbat ehtiyoji tufayli gurunglashardim. Oxirgi marta qachon bunday bemalol, chegaralarsiz suhbatlashganimni eslolmayman.

turadi-da, bu safar dadilroq, ammo hayajon bilan davom etadi:

— Alo, eshityapsizmi?.. Ha, yaxshi... Sizga boshqacharoq gapirgim kelyapti-da. Nimadir yangiroq, nimadir tabiiyroq, iliqroq... gap ayitishim kerak. Keling, fikrimni to'liq ifodalash uchun rahmatli ustozim haqida gapirib beraman. U fizikadan dars o'tardi. Bilishimizcha, so'qqabosh, olis bir qishloqdagi katalakdek uyda onasi bilan yashardi. Ammo bizga dars o'tish uchun o'n chaqirimlab yo'lni piyoda bosib o'tar, shuncha yurib kelgan bo'lsa ham sira yuzida horg'inlik, charchoq sezilmas, mudom yonib, chaqnab turardi. Boshqacha, chiroyli dars o'tardi. Keyinchalik oyligini yig'ib, velosiped sotib oldi.

Shu qadar kamsuqum, kamxarj bo'lsa ham uni qattiq hurmat qilardik. O'ylashimcha, u shunga majbur etardi. Albatta, u bunday munosabat talab qilmasdi, shunchaki masofa saqlar edi. Beixtiyor uning rangi uniqib ketgan kostyumi, cheti sichqon kemirgandek teshilib qolgan qadimiy portfeliga ko'z yumib, bor diqqat-e'tiborimizni so'zlariga qaratar edik. Ozg'inligidan uni hozir yiqilib tushadi deb o'ylardik, ammo u hech qachon yiqilib tushmas, bizni hayratga soluvchi epchilligi bilan tik va purviqor qiyofaga qaytardi. U gapirar ekan, aytayotgan uzun jummalari ortida nafaqat uning, balki o'zimizning hayrat va umidga to'la hayotimizni sug'orib turadigan qudrat qad kerib turganday tuyulardi...

Keyin nima bo'ldi? Keyin qish keldi. Qora sovuq. Yonimizdagi daryo sathi tirik jon o'tsa bo'ladigan darajada muzlagan. Nariyog'i kichik o'mron, undan so'ng ustozimizning qishlog'i edi. Sho'rlik yo'lni kesib o'tsam, vaqtim tejaladi deb o'ylagan aniq. Falokat esa doim oyoq ostida. Ikki oy diydirdir maktabimizga muzlagan daryo orqali qatnagan



sevimli ustozimiz yangi yilga uch kun qolganda muz sinib, cho'kib ketdi.

Qayg'uli voqea bilan suhbatni ta'sirchan qilishdan yiroqman. Shunchaki u bizga juda yaxshi ta'lim berganidan maktabni tamomlab, oliyog'ha o'qishga kirguncha qadar uni bizdan tortib olgan daryoni oshkora yomon ko'rdik. Uydagilar choy damlab kelganda, o'sha daryoning suvidan ekanini bilsak, zinhor ichmaydigan odat chiqardik. Bu yosh bolalarga qiliqlarimiz ortida ma'sumiyat bilan o'ralgan hurmat, ustozimizning pok ruhiga ehtirom ehromlari qad rostlab turardi. Demochimanki, o'qituvchi, muallim, ustoz, qaysi so'z bilan ifodalanishidan qat'i nazar, qiladigan ishi so'zidan-da buyuk. Sohadan bexabar istalgan odamga o'qituvchi tashqaridan kuniga olti soat dars o'tadigan, nazorat ishi, imtihon, maktabning maydashuvda tashvishlariga o'ralashib, bir oz asabiy bo'lib qolgan, yaqin yillardan buyon ko'kragiga oftob tegib, cho'ntagi qappayib qolgandek bir yoqlama tasavvur uyg'otadi. Ammo o'qituvchi sifatida shuni aytishim mumkinki, biz bugun nafaqat moliyaviy erkinlikka chiqdik, balki ruhan o'zimizni xotirjam his qila boshladik. Ishimizdan, "malim" ekanimizdan uyalmaydigan, aksincha, xalqaro maydonda ham o'zbek muallimi mavqei oshirish uchun to'xtovsiz ilm olish va ilm o'rgatish maqsadida harakat qiladigan, mashg'ulotimizni sevadigan bo'ldik.

Suhbatdoshimizning so'zlariga quloq tutarkanman, bu samimiy guruh orasiga doimiy bayramona shukuhga to'la gaplardan yiroq, odamning o'zini taftish qilishga undovchi so'zlarni maqolaga qo'shishim qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini haqidagi o'ylovim qovog'ari kabi

g'ong'illab suqilar, ammo o'qituvchining shashtini sira tushirgim kelmasdi. Ichidan quyilib kelayotgan gaplarini o'zgarishsiz yozishga o'zimga o'zim va'da berib turarkanman, yutuqlari xususida ravon gapirib ketadi:

— Keling, endi aniq raqamlar, reyting va natijalarga to'xtalsak. Masalan, shu yil 26-31-iyul kunlari Hindistonda 30 ta davlatdan 576 iqtidorli o'quvchi ishtirok etgan Xalqaro matematika musobaqasida vakillarimiz 18 ta medalni qo'lga kiritdi. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, tan olingan xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari munosib rag'batlantiriladi. Jumladan, oltin medalni qo'lga kiritgan o'quvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 500 barobari, o'qituvchisiga 450 barobari, kumush medal bilan taqdirlangan o'quvchiga 300 barobari, ustoziga 250 barobari, bronza medal olgan o'quvchiga 200 barobari, ustoziga esa 150 barobari miqdorida davlat byudjetidan pul mukofoti beriladi. Bundan tashqari, g'olib o'quvchilar davlat OTMlariga test sinovisiz va go'shimcha imtihonsiz grant asosida talabalikka qabul qilinadi. Keyinchalik ta'lim muassasalarida o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritgan taqdirda lavozim maoshiga 150 foiz har oylik ustama beriladi. Bu birgina matematika fani atrofida gaplar. Xalqaro kimyo, informatika, fizika olimpiadalari bor... Bir qizni bilaman: ism-familiyasi Mohira Boltayeva. Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda o'quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlaydi. Qisqasi, professional murabbiy. Yosh, salohiyatli, iloji bo'lsa, u bilan ham suhbatlashib ko'ring. Shunda ikki davr odami bugungi o'qituvchilik maqomini birdek sharaflashiga guvoh bo'lasiz, — deydi Elbek To'xtamurodov.

Muallim bilan bir-birimizga sog'liq-salamatlik tilab, xayrlashamiz. Behad xursandman, maqola qay ruhda yozilishi endi aniq, faqat yana bir o'zga, yangi muhitda ulg'aygan muallim iqrori yetishmasdi. Xayolimda Mohira Boltayeva ismi shu qadar ko'p aylanardiki, uni darhol topmasam, halovatim bo'lmashligini anglab turardim.

— Elbek akani tanimas ekanman, ammo u men haqimda bilar ekanmi, demak, ilm targ'ibotidagi sobitqadamlik va jur'atni sira susaytirmasligim kerak. O'qituvchi yoki murabbiy bo'lib faoliyat yuritayotganimga ko'p bo'lmadi, ammo shu yillarda umrini nafaqat savodli, balki ziyoli qatlamni shakllantirishga, baholi qudrat ta'lim berishga uringan va buni qoyilmaqom qilib uddalayotgan ustozlar yo'li nechog'liq mashaqqatli, shu bilan birga, shonli ekanini

anglab yetdim, — deydi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Xalqaro olimpiada zaxiralari markazi murabbiysi, to'garak rahbari Mohira Boltayeva. — Xalqimiz "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin", deganida olimlik mashaqqatini inkor qilmagan, balki buning iloji borligiga urg'u bergan. Olim bo'lish, izlanish, kashfiyotlar bilan odamlar hayotini yengillatish, mamlakat rivojiga hissa qo'shish o'z-o'zidan kechadigan jarayon emas. Birgina kashfiyot uchun bir emas, balki ikki-uch olimlar avlodi umrini baxshida qilishi mumkin. Pirovardida esa mashaqqatli



mehnatlar samarasidan butun insoniyat bahramand bo'ladi. Mana shu mevasi shirin mehnat uchun hammasiga tayyor ekanimga bugun sabablar yetarli. Bundan bir necha yil oldin, aniqrog'i, 2019-yili Xalqaro Mendeleev olimpiadasida bronza medalni qo'lga kiritganimda yurtimizda zamonaviy ilmiy laboratoriyalar yo'qligi, reaktivlar yetishmasligi, uskunalar eski yoki kamligini aytib yozg'irgan, kimyo fanini tanlab to'g'ri ish qildimmi o'zi deb shubhaga ham borib qolganim. Bugun esa istalgan amaliyot uchun laboratoriya shu darajada ko'p, hatto bir vaqtlar universitetlarda bo'lmagan sharoit maktablarda bor. Hozir olim bo'lish, muallimlik yo'lidagi sun'iy to'siqlar batamom olib tashlangan, faqat ilm qilishga hafsala topish kerak, xolos.

2021-yili xalqaro tabiiy fanlar olimpiadasida o'quvchilarimiz 2 ta bronza, 2021-2022-yillarda kimyo fanidan bitta oltin, beshta kumush hamda uchta bronza medal, keyingi yili xuddi shu olimpiada 2 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza medal, Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasida esa 3 ta oltin, 3 ta kumush medalni qo'lga kiritdi. Bu yil

ham tirishqoq o'quvchilarimiz medallarini to'rttaga ko'paytirdi. Moddiy rag'bat, albatta, o'quvchini ham, o'qituvchini ham ruhlantiradi, lekin undan-da muhim, ta'limga davlat miqosida e'tibor berilayotgani odami baxtiyor qiladi, o'z ishini sevishga undaydi.

Kimyoviy moddalarni yodlash, fan rivojiga hissa qo'shgan olimlarning ismiyu ular yozib qoldirgan asarlarni xotiraga muhrlash uchun chirinish davri o'tdi — hozirgi bolalar nimani va nimaga o'rganayotganini fahmlashi uchun barcha moddiy imkoniyat yaratilgan. Endi ularda olimpiada shunchaki birinchi o'rin olishi emas, balki kelajakda millatga nafi tegadigan nobelchi olim bo'lishni diliga tugib qo'rgan. Ha, bizdan Nobel mukofoti sovrindorlari chiqishiga chin ko'ngildan ishonaman. Buning uchun bizda salohiyat yetarli. Ozgina sabr qilib, so'nggi vaqt chig'irig'idan o'tib olsak, marra bizniki bo'ladi. Bu havoyi gaplar emas, ayni damda sodir bo'layotgan ijobiy hodisalarga nisbatan samimiy munosabat.

Men hayotda qat'iy ishonch bilan yashaydigan maslak shuki, aynan ilm-fan insoniyatni sivilizatsiyaga eltadigan kuchdir. Tarixning qaysidir bosqichida muayyan tamaddun zamonasining eng ilg'ori hisoblangan bo'lsa, bunga hech bir istisnosiz ravishda faqat va faqat ilm-fan borasida boshqalardan ilg'or bo'lgani evaziga erishgan. Biz ham erishamiz. Men ham, o'quvchilarim ham bu maqsaddan qaytmaydi!

Suhbat yakunlangach, chuqur tin olaman. Ayni paytda yuragimdan so'zlariga qo'shilib otilib chiqqan hayajon va umid ohulari chaqnab turgan bugungi ko'zlarning toyg'oq

qoyalardan sakrab o'tishga urinar, ular bilan bir davrda, bir davrada ketish uchun harakat qilardi.

O'qituvchining oliy burchi haqida o'ylarkanman, negadir Elbek akaning ustozlari ko'z oldimda men istagan ko'rinishda gavdalanardi. U, nazarimda, qo'l yetmas yuksaklikda turar, uni mayda, ba'zan haddan ortiq bachkana tashvishlarga o'ralashib yashayotgan bizning ikir-chikirlarga, o'tkinchi ishlarga aralashtirish mumkin emasday tuyulardi. U o'zi turgan yuksaklikdan men tomon boqar, qiyofasida balqigan shams nurlari muzlab yotgan va anchadan buyon oqib tegmagan ko'nglimni iltar ekan, bu qiyof hayot taftini xuddi afsonaviy Hotamtoy boyliklarini qashshog'u muhtojlarga bir-bir ulashganday sadoqat qilib ketardi. Qilg'um atrofida esa Mohira muallimning so'zlari qayta-qayta aks sado berardi: "O'zing sevib qilyotgan ish esa ish emas, ulug'lar aytganidek, maqsadga, inson o'zidan va o'zgalardan rozi bo'lish uchun qilajak sharaflil vazifaga aylanadi".

Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3372. 41369 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy